



Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 212,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **694,5** mlrd. so'mni (**22,2 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 518,1** mlrd. so'mni (**13,1 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **868,5** mlrd. so'mni (**44,2 %** ga oshdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2021- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 212,6** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,7 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida Urganch shahrida kamayish sur'ati kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **86,7 %** va yirik korxonalar hissasiga **13,3 %** to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH


Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **34,8 %** ulush bilan **1 812,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush Tuproqqal'a tumanida **2,0 %** ulush bilan **106,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**

XORAZM VILOYATI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2021- yil yanvar-iyul



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keldi. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **4 518,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **13,1 %** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **86,7 %** ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,4 %), Bog'ot (99,1 %) va Gurlan (98,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	5 212 620,4	106,7	694 478,3	77,8	4 518 142,1	113,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	1 812 746,9	100,6	571 868,1	77,7	1 240 878,9	116,4
Xiva	190 511,5	104,9	12 577,3	86,8	177 934,2	106,4
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	272 303,9	114,3	2 466,5	15,6	269 837,4	121,3
Gurlan	445 985,4	112,7	6 018,8	83,7	439 966,6	113,3
Qo'shko'pir	209 501,9	110,9	11 756,4	130,0	197 745,6	110,0
Urganch	488 851,1	103,1	27 430,5	75,7	461 420,7	105,4
Hazorasp	541 454,5	114,4	30 742,4	2,4 m.	510 712,1	110,9
Tuproqqal'a	106 728,6	111,7	244,6	3,1 m.	106 484,0	111,6
Xonqa	302 549,7	111,3	13 802,1	37,5	288 747,6	122,8
Xiva	135 083,1	104,4	2 892,4	112,2	132 190,7	104,2
Shovot	344 021,2	115,2	5 862,9	39,3	338 158,3	119,2
Yangiariq	228 993,8	104,7	1 423,4	29,0	227 570,4	106,5
Yangibozor	133 888,7	111,5	7 393,0	5,0 m.	126 495,8	106,7



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **22,2 %** ga kamaydi va **694,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 518,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **13,1 %** ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86,7 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (99,8 %), Yangiariq (99,4 %) va Bog'ot (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (31,5 %), Xiva shahri (6,6 %) va Hazorasp tumanida (5,7 %) kuzatildi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 745,2** ming so'mni (2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,1 %** ga oshdi) tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Shovot (113,6%), Hazorasp (112,7 %), Bog'ot (112,4%) tumanlarida qayd etildi. Urganch shahrida (99,9 %) eng quyi ko'rsatkich kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (12 484,5 ming so'm), Gurlan (2 975,2 ming so'm) va Hazorasp (2 758,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



XORAZM VILOYATI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI 2021- yil yanvar-iyul


	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	2 745,2	105,1
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	12 484,5	99,9
Xiva	2 031,0	103,2
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	1 629,6	112,4
Gurlan	2 975,2	111,4
Qo'shko'pir	1 203,3	109,5
Urganch	2 417,7	101,2
Hazorasp	2 758,3	112,7
Tuproqqal'a	1 916,1	110,5
Xonqa	1 601,6	109,6
Xiva	914,6	102,6
Shovot	1 999,0	113,6
Yangiariq	1 948,9	103,2
Yangibozor	1 516,3	110,1

Asosiy tarkib, foizda




2021- yilning yanvar-iyul oyilarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **868,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **44,2 %** ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **421,7** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 117,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **446,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 183,1 %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 421,7 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 446,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	868,5	144,2	421,7	117,7	446,8	183,1
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	181,6	135,4	127,8	130,1	53,8	150,0
Xiva	13,9	105,3	13,9	105,3	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	129,3	152,6	19,9	100,4	109,4	168,4
Gurlan	88,4	179,2	25,9	133,7	62,5	2,1 m.
Qo'shko'pir	58,7	105,1	40,2	117,6	18,5	85,5
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	96,4	182,2	47,8	143,8	48,6	2,5 m.
Tuproqqal'a	23,3	161,3	21,0	155,1	2,4	2,5 m.
Xonqa	77,6	162,0	55,4	134,5	22,2	3,3 m.
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	154,5	145,0	46,7	79,7	107,7	2,2 m.
Yangiariq	25,6	93,8	12,9	72,9	12,7	132,0
Yangibozor	19,1	120,6	10,2	111,5	8,9	132,9

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



3,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



165,8
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



14,1
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

62,6
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



10,2
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

31,3
mlrd. so'm



Tuxum

69,0
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

20,4
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) **11** ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **421,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**165,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

4,5
mlrd. so'm



Ziravorlar

34,8
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

4,4
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**


2021- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **446,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **412,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **29,9** mlrd. so'mni, parrandalar **4,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2021- yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,0 %** ni tashkil etib, **52,1** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **2,0 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **99,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	52 144,6	102,0	437,8	9,8	51 706,8	110,8
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	23 212,6	103,4			23 212,6	109,1
Xiva	1 959,5	101,1			1 959,5	101,1
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	1 975,4	101,2			1 975,4	101,2
Gurlan	1 371,4	101,2			1 371,4	101,2
Qo‘shko‘pir	833,2	101,5			833,2	101,5
Urganch	8 262,9	101,0	437,8	108,1	7 825,1	100,6
Hazorasp	3 769,6	100,9			3 769,6	100,9
Tuproqqal‘a	730,1	101,0			730,1	101,0
Xonqa	1 644,4	101,3			1 644,4	101,3
Xiva	1 149,7	100,6			1 149,7	100,6
Shovot	5 257,0	100,5			5 257,0	2,2 m.
Yangiariq	819,7	101,4			819,7	101,4
Yangibozor	1 159,0	100,6			1 159,0	100,6

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2021- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 556,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **2,7 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **471,2** mlrd. so'mni (**5,9 %** ga oshdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 085,2** mlrd. so'mni (**1,4 %** ga ko'payish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

1 556,4 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

471,2 mlrd. so'm, 30,3 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

1 085,2 mlrd. so'm, 69,7 %


Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bog'ot tumani (4 209,9 m.), Gurlan tumani (1 065,4 m.), Yangibozor tumani (36,5 m.) va Hazorasp tumani (13,9 m.) da kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o'zgarish sur'ati Gurlan (3,3 m.), Bog'ot (3,3 m.) va Xiva (164,5 %) tumanlarida qayd etildi. **Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 556 416,3	102,7	471 243,8	105,9	1 085 172,4	101,4
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	693 719,3	89,9	127 892,0	62,6	565 827,3	99,8
Xiva	43 268,1	100,5	541,5	129,9	42 726,6	100,2
<i>tumanlar:</i>						
Bog'ot	43 952,6	3,3 m.	30 439,7	4209,9 m.	13 512,9	100,7
Gurlan	98 801,6	3,3 m.	68 956,1	1065,4 m.	29 845,5	100,2
Qo'shko'pir	6 663,8	100,2	7,1	29,7	6 656,7	100,4
Urganch	382 010,0	105,9	191 142,8	117,2	190 867,1	96,5
Hazorasp	17 604,9	102,1	308,1	13,9 m.	17 296,9	100,5
Tuproqqal'a	6 521,8	8,9	20,8	0,0	6 501,0	100,3
Xonqa	101 923,0	164,5	50 569,5	4,7 m.	51 353,5	100,0
Xiva	105 692,8	126,3	233,4	2,7 m.	105 459,4	126,1
Shovot	23 028,8	103,2	44,4	2,3 m.	22 984,4	103,1
Yangiariq	10 961,6	105,5	200,4	8,8 m.	10 761,2	103,8
Yangibozor	22 267,9	103,3	887,9	36,5 m.	21 380,0	99,3

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **1 085,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,4** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **69,7** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Qo'shko'pir (99,9 %), Xiva (99,8 %) va Shovot (99,8) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Gurlan tumani (30,2 %) va Bog'ot tumaniga (30,7 %) to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09